Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 2

SO‘FIYLIKDA QUR’ONNI BOTINIY TALQIN QILISH AN’ANASI VA TARIQATLARNING MARKAZIY OSIYODA TARQALISH OMILLARI

Eldorjon Xusanboy o‘ğli Xolyigitov*
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
✉ alfargoniy.uz@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada so‘fiylikning ikki o‘zaro bog‘liq qatlami, ya’ni Qur’onni botiniy talqin qilish an’anasi va tariqatlarning ijtimoiy tarmog‘i Markaziy Osiyo misolida ko‘rib chiqiladi. Tahlil tasavvufiy tafsir, Tustariyning Qur’on haqidagi qarashlari, ishoriy tafsirga qo‘yiladigan shartlar va Naqshbandiya tariqatining tarqalish mexanizmlariga oid so‘nggi tadqiqotlarga tayanadi. Tasavvufiy tafsirda botiniy va an’anaviy talqin birga uchrashi, tariqat tarqalishida esa ustozlar harakati, xonaqoh tarmoqlari, matnlar aylanishi va siyosiy homiylik asosiy mexanizmlar bo‘lgani ko‘rsatildi. Ilmiy obro‘ va ijtimoiy ta’sir o‘zaro kuchaytirgan degan ish gipotezasi ilgari surildi. Manbalar doirasi tor ekani va gipoteza tekshiruvni talab qilishi alohida qayd etildi.

Kalit so‘zlar

so‘fiylik, tasavvuf, tasavvufiy tafsir, ishoriy tafsir, Tustariy, Naqshbandiya, Markaziy Osiyo.

DOI: 10.5281/zenodo.23468050

KIRISH

So‘fiylik islom tarixida ikki qatlam bilan asoslandi. Birinchisi Qur’onni ichki ma’nolar orqali tushunishga intilgan ilmiy-ma’naviy an’ana, ikkinchisi shayxlar, xonaqohlar va shogirdlik zanjirlaridan iborat ijtimoiy tuzilma, ya’ni tariqatlardir. Ko‘pincha bu qatlamlar alohida o‘rganiladi, aslida esa ular bir-birini taqozo qiladi. Ularni ajratib ko‘rish tasavvuf tarixini bir tomonlama talqin qilishga olib kelishi mumkin, faqat ta’limotga e’tibor berilsa, uning jamiyatdagi o‘rni biroz susayadi, faqat tashkilotga qaralsa, g‘oyaviy asosi tushunarsiz qoladi. Tasavvuf ahli Qur’onni dastlabdan mistik bilim manbai deb bilgan, ular oyatlarni ilohiy haqiqatlarga ishoralar sifatida o‘qigan va shu sababli tafsirning ishoriy usulini shakllantirgan [1; 297]. Bunday qarashda shaxsiy ruhiy tajriba matnning zohiriy qatlamidan botiniy qatlamiga o‘tish vositasiga aylanadi. Demak, so‘fiylikni faqat ruhiy amaliyot deb emas, matnga yondashuvning maxsus tizimi deb ham ko‘rish mumkin. Biroq bu soha keng ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma’lum emas. L. Holtsmanning yozishicha, tasavvufiy tafsirni o‘qish uchun Qur’on, hadis, arab tili va lug‘ati, fiqh va kalom kabi bir necha fandan chuqur tayyorgarlik kerak, shu bois bu adabiyot ko‘pchilik tadqiqotchi va talaba uchun deyarli notanish qolgan [1; 298]. Bu holat tasavvuf merosini o‘rganish yuqori malaka talab etishini ko‘rsatadi. Shuningdek, tasavvufiy tafsirlar ko‘pincha chetda turuvchi va asosiy islomiy ilmlarni o‘rganishga aloqasiz deb baholanadi, holbuki ularning mualliflari sunniy ulamolar bo‘lgan [1; 298]. Bu o’z navbatida so‘fiylikni islom ilmiy an’anasidan ajratib qo‘yuvchi qarashni tanqid qiladi va uning dinning tarkibiy qismi sifatida ko‘rishni taklif etadi. Shu nuqtai nazardan maqolada so‘fiylikning germenevtik va institutsional qatlamlari birga ko‘rib chiqiladi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyo misolida ayniqsa foydali, chunki bu mintaqada tariqatlar ilmiy va ijtimoiy hayotda ta’sirli o‘rin tutgan. Bu qarash maqolaning asosiy nuqtai nazarini belgilaydi. Ikki qatlamni birga ko‘rish so‘fiylikni to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Institutsional qatlam Markaziy Osiyo misolida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Naqshbandiya tariqati XIV

asrda Buxoroda paydo bo‘lib, tez orada Markaziy Osiyo, Hindiston va Kichik Osiyoga tarqalgan [2; 41]. Bu tarqalish shaxsiy taqvo bilan cheklanib qolmay u siyosiy va iqtisodiy muhit bilan ham bog‘liq edi. Naqshbandiya tarixi bo‘yicha adabiyot, ayniqsa rus va postsovet (o‘zbek) tadqiqotlarida, ko’p izlanishlar mavjud bo’lsada, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab tarqalish shakllari hali to‘liq o‘rganilmagan [2; 47]. Demak, bo‘shliq tariqat tarixining o‘zida emas, uning tarqalish hududlari va usullariga oid jihatlarida turibdi. Boshqacha aytganda, voqealar ma’lum, ammo ularning ichki mantiqi hamon tortishuvli. Tadqiqotchilar doktrinal va ruhiy jihatlarga ko‘p e’tibor berilgani, tarqalishning hududiy dinamikasi esa kam yoritilganini alohida qayd etadi [2; 42]. Bu kuzatish tadqiqot savolini aniqlashtiradi. Tasavvufiy g‘oyalar qanday ijtimoiy yo‘llar bilan ko‘chgan? Bizning fikrimizcha, bu savolga javob berishda ikki qatlamni ajratmasdan ko‘rish foydali. Chunki tariqat ta’limotining ichki mazmuni, ya’ni Qur’onni ichki ma’no orqali o‘qish, uning ijtimoiy qabul qilinishiga ham ta’sir qiladi. Maqolaning maqsadi so‘fiylikning Qur’onni botiniy talqin qilish an’anasi va tariqatlarning Markaziy Osiyoda tarqalish omillarini so‘nggi yillardagi tadqiqotlar asosida solishtirib ko‘rish, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va shu bog‘liqlikning chegaralarini belgilashdir.

Tasavvufiy tafsirning tayanch xususiyatlarini ko‘rsatish; Naqshbandiya misolida tariqat tarqalishining mexanizmlarini tahlil qilish;

ikki qatlamning kesishgan nuqtalarini topish;

xulosalarning cheklovlarini ochiq aytish. Tadqiqot Naqshbandiya misoliga tayanadi, chunki bu tariqat haqidagi tarixnoma boy va uning tarqalishi bir necha mintaqani qamrab olgan. Yassaviya va Kubraviya kabi boshqa yo‘nalishlar maqola doirasiga kiritilmagan. Ta’limotning ichki mazmuni va uning ijtimoiy tarqalishi odatda turli fanlar doirasida, masalan, islomshunoslik va tarix fanida, alohida yoritiladi; bu maqola ularni bir tahlilda uchrashtirishga urinadi.

Metodlar

Tadqiqot manbaga asoslangan qiyosiy tahlilga tayanadi. Materiallar ikki toifaga ajratildi. Birinchi toifaga tasavvufiy tafsir va uning ishoriy usuliga oid ishlar kirdi. Holtsmanning Koppens monografiyasiga taqrizi, Tustariyning Qur’on haqidagi qarashlariga bag‘ishlangan tadqiqot va o‘zbek tilidagi ishoriy tafsirlar haqidagi maqola. Ikkinchi toifaga tariqatlarning tarqalishini o‘rganuvchi qozog‘istonlik mualliflar tadqiqoti kiritildi. Tahlil uchun qozog‘istonlik mualliflar ishidagi metodologik farqlash asos qilib olindi. So‘fiy ustozlarning ko‘chishi, xonaqoh va suhbat halqalarining shakllanishi, qo‘lyozmalarning aylanishi va siyosiy homiylik tariqat tarqalishining alohida mexanizmlari sifatida qaraladi [2; 42]. Bu farqlash tarqalishni yagona sababga bog‘lab qo‘yishdan saqlaydi. Ayni paytda manbalarning cheklovlari hisobga olindi. Hagiografik adabiyotga tayanish janr tomonidan yuzaga keladigan xatolikni, ya’ni ruhiy obro‘ni tarixiy tafsilotdan ustun qo‘yish moyilligini keltirib chiqaradi [2; 43]. Shu sababli bunday manbalarga tanqidiy yondashildi. Tasavvufiy tafsir masalasida esa Holtsman ko‘rsatganidek, bu asarlar botiniy va an’anaviy talqinni birga qamrab oladi, ya’ni ular faqat mistik tajribadan iborat emas [1; 297]. Bu holat tadqiqotchidan har bir manbani o‘z janri doirasida o‘qishni talab qiladi. Har bir manbadan olingan fikrlar ularning o‘z kontekstida talqin qilindi va mualliflar aytmagan darajaga kengaytirilmadi. Shu tariqa tahlil nazariy tasavvurlarni emas, aniq manbalardagi kuzatishlarni asos qilib oldi. Bu yondashuv xulosalarning asossiz kengayib ketmasligiga xizmat qiladi. Tahlil uch bosqichda olib borildi. Tustariy misoli uchun asos sifatida uning Qur’onga munosabati haqidagi zamonaviy tahlil olindi [3; 49]. O‘zbek tilidagi ishoriy tafsir tadqiqoti esa bu tafsirlarning maqbulligi uchun qo‘yiladigan shartlarni ko‘rsatadi [4; 104]. Tanlangan manbalar doirasi tor ekanini ham aytish kerak.

Natijalar

Tasavvufiy tafsir bo‘yicha tahlil uning tarkibiy ikki tomonlamaligini ko‘rsatdi. Holtsman e’tiboricha, tasavvufiy tafsir asarlarida botiniy va an’anaviy talqin birga uchraydi, shu sababli “tasavvufiy tafsir” tushunchasining o‘zi qanchalik asosli degan savol ko‘tariladi [1; 297]. Bu savol muhim, chunki u tasavvufni o‘z-o‘zidan alohida tur deb hisoblamaslikka undaydi. Demak, tasavvufiy tafsirni faqat ramziy o‘qish sifatida baholash yetarli emas. Yana bir kuzatish shuki, ishoriy talqin har bir oyatga tizimli qo‘llanmagan, chunki tasavvuf mufassirlarining mulohazalari faqat mistik tajribaga tayanmagan, ular hadis, fiqh, arab grammatikasi va lug‘atshunosligi kabi sohalardagi bilimlarga ham suyangan [1; 297]. Bu esa so‘fiy mufassirni bir vaqtning

o‘zida ham olim, ham solik sifatida ko‘rishga imkon beradi. Tustariyning Qur’on haqidagi qarashlari bu manzarani aniqlashtiradi. Uni birinchi so‘fiy mufassir deb bilishadi, chunki u tasavvufiy talqinning tamoyillarini ilk marta belgilab bergan, uning asosiy tayanchlaridan biri Qur’onni arabcha muqaddas kitob deb bilishi va unda to‘rt ma’no qatlami, ya’ni zohir, botin, hadd va matla’ borligini tan olishidir [3; 49]. Bu to‘rt qatlamli sxema ma’noni bir tekis “ochib” berish emas, uni bosqichma-bosqich anglash yo‘lini ko‘rsatadi. Shu ma’noda to‘rt qatlamli sxema Holtsman tasvirlagan yo‘lga, ya’ni zohiriy qatlamdan o‘tib botiniy qatlamga yetishga, mos keladi [1; 297]. Bu moslik tasodifiy bo‘lmasligi mumkin, ikkala holatda ham ma’no bosqichma-bosqich ochiladi deb tasavvur qilinadi. Shunday bo‘lsa-da, hadd va matla’ qatlamlarining aniq mazmuni alohida o‘rganishni talab qiladi.

Tasavvufiy tafsirning mazmuniga oid kuzatishlar ham qiziq. Holtsman bayon qilishicha, Koppens tahlil qilgan beshta XI asr asarida oxirat hayotining jismoniy tasvirlariga juda kam e’tibor berilgan, mualliflar asosiy diqqatni Allohni ko‘rish masalasiga qaratgan [1; 299–300]. Bu shuni bildiradiki, tasavvufiy talqinning markazida mukofot va jazo emas, Ilohga yaqinlik turgan. Ya’ni oxirat mavzusi ham ichki tajriba tilida gapirilgan. Xuddi shu fikr Tustariy nomi bilan ham bog‘lanadi. Sulamiy uning so‘zini keltirib, chin mo‘min faqat Allohdan ajralishdan qo‘rqishini, shu bois abadiy olovdan qo‘rqmasligini yozgan [1; 301]. Bunday qarash ma’naviy motivatsiyani qo‘rquvdan yaqinlik tomonga yo‘naltiradi. Biroq bu yo‘nalish an’anaviy ulamolarning e’tirozini ham keltirib chiqargan. Majoziy talqinga tayangan tafsirlar an’anachilar tomonidan “maqtovga sazovor bo‘lmagan” toifaga kiritilgan [1; 300–301]. Bu baho tasavvufiy talqinga nisbatan ilmiy jamoatchilikdagi ehtiyotkorlikni ko‘rsatadi. Shunga qaramay, tasavvufiy talqinni butunlay rad etish emas, unga shartlar qo‘yish yo‘li tanlangan. O‘zbek tilidagi tadqiqotda ta’kidlanishicha, mutaxassis olimlar ishoriy tafsirlarning maqbul bo‘lishi uchun bir qator shartlar belgilagan va ishoriy tafsir shu shartlar bajarilgandagina to‘g‘ri hisoblanadi [4; 104]. Bu shartlar tizimi tasavvufiy tafsirni ilmiy nazoratdan tashqarida qoldirmaydi. Demak, botiniy talqin erkin xayolot emas, muayyan meyorlar doirasida amalga oshiriladigan faoliyat sifatida qaralgan. Bu tasavvufning islom ilmiy muhitida saqlanib qolishining sabablaridan biri bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, tasavvufiy tafsir bir tomondan shaxsiy tajribaga tayanadi, boshqa tomondan jamoaviy ilmiy meyorlar bilan tartibga solinadi. Bu ikki tomonlamalik uni ham chuqur, ham himoya qilinadigan talqin usuliga aylantiradi. Bu jihat tasavvufiy tafsirning islom ilmiy muhitidagi o‘rnini belgilaydi. Shu bilan birga tasavvufiy tafsirni tarixiy va ilmiy kontekstidan ajratib baholab bo‘lmaydi. Bu masalada uch narsa muhim: mazmun, janr va qabul qilinish shartlari, ular birga ko‘rilganda tasavvufiy tafsirning o‘rni aniqroq bo‘ladi.

Institutsional qatlam bo‘yicha natijalar tariqat tarqalishining bir necha mexanizmini ko‘rsatadi. Buyuk ipak yo‘li tariqat tarqalishiga ko‘maklashuvchi muhit bo‘lgan, biroq savdo yo‘llari diniy tarqalishni o‘z-o‘zidan ta’minlagan deb bo‘lmaydi: savdogarlar, sayyor olimlar, elchilar va diniy shaxslarning harakati turli mantiqda kechgan [2; 42]. Bu kuzatish soddalashtirilgan sabab-oqibat sxemasidan voz kechishga undaydi. Ya’ni savdo yo‘li imkoniyat bergan, uni ishga soluvchi kuch esa boshqa joyda turgan. Tariqatning ichki tuzilishi ham muhim: Bahouddin Naqshband o‘zini Xoja Ahmad Yassaviy izdoshi deb bilgan, mualliflar fikricha, u alohida oqim yaratishni ko‘zlamagan bo‘lishi mumkin, yassaviylik tamoyillari esa davr talabiga mos to‘ldirish yoki yangilash sifatida qabul qilingan bo‘lishi ehtimol [2; 43]. Bu Markaziy Osiyo tasavvufida uzluksizlik va yangilanish birga ketganini ko‘rsatadi. Shu tariqa yangi tariqat eski an’anadan butunlay uzilib chiqmagan bo‘lishi mumkin. Naqshbandiyaning boshqa so‘fiy yo‘llardan farqi ham keltiriladi: unga ko‘ra din vakillari hokimiyat bilan aloqa o‘rnatib, jamoatchilikka ta’sir o‘tkazishi kerak, shu ma’noda tariqat yuqori darajada siyosiylashgan edi [2; 44]. Bu fikr Naqshbandiyaning ijtimoiy ta’sir doirasi kengayganini tushuntiradi. Yana bir mexanizm ta’lim usulida ko‘rinadi: shayxlar shogirdlarini bilimini to‘ldirish uchun boshqa ustozlar oldiga yoki boshqa hududlarga yuborgan, bu tamoyil tariqatning hududiy tarqalishida katta rol o‘ynagan [2; 44]. Shu tariqa ta’lim va tarqalish bir jarayonga aylangan. Bu jarayon shaxsiy sadoqat bilan tashkiliy tuzilmani birlashtirgan bo‘lishi mumkin, natijada tariqat nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy tarmoq sifatida ham ishlagan. Manbada Amir Temur davrida so‘fiy vakillari hokimiyatga yaqinlashgani, oldingi islomiy va mo‘g‘ul hukmdorlari esa ularni hokimiyatdan uzoq tutishga intilgani ham qayd etilgan [2; 44]. Bu tariqat ta’sir doirasining siyosiy sharoitga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu holat tariqat tarqalishini faqat tashqi omillar bilan tushuntirish yetarli emasligini ham ko‘rsatadi.

Tariqatning siyosiy va ijtimoiy hayotga ta’siri Xoja Ahror faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. Manbaga ko‘ra,

u siyosiy hokimiyat qo‘llovi bilan diniy, madaniy va ijtimoiy sohalarda bir qator islohotlar o‘tkazgan, jamoa a’zolarining bir qismi esa hunarmandchilik, savdo va ijtimoiy ishlarga aralasha boshlagan [2; 45]. Bu tasavvufni dunyodan chetlanish bilan bir xil deb biladigan qarashga qarama-qarshi manzara beradi. Tarqalish hududlari bo‘yicha farqlar ham ochiq ko‘rsatilgan. Hindistonda Naqshbandiya tarmoqlari asosan Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan matnlar va ilmiy nasl-nasab zanjirlari orqali mustahkamlangan; Kichik Osiyoda va Usmonlilar hududida esa tariqat sayyor vakillar hamda mahalliy institutlarga joylashuv orqali tarqalgan [2; 50]. Demak, bir xil ta’limot turli hududlarda turlicha yo‘llar bilan ildiz otgan. Bu tasavvuf tarqalishini yagona andoza bo‘yicha tushuntirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi, chunki har bir hududda mahalliy siyosiy, ijtimoiy va ilmiy muhit o‘z rolini o‘ynagan. Keyingi tadqiqotlar bu masalani yangi manbalar asosida aniqlashtirishi mumkin. Mualliflarning umumiy xulosasi shuki, Buyuk ipak yo‘li tariqat tarqalishida bevosita sabab emas, balki qulay sharoit yaratgan; asosiy vazifani ustozlar harakati, xonaqoh tarmoqlari, matnlar aylanishi va homiylik munosabatlari bajargan [2; 49]. Bu farqlash boshqa hududlar va tariqatlar uchun ham qo‘llanishi mumkin. Tarixnomada esa fikrlar to‘liq mos emas. Masalan, yassaviylik ko‘chmanchi jamiyatda samaraliroq bo‘lgan degan qarash bor, ammo ko‘plab tadqiqotchilar bu fikrga qo‘shilmaydi [2; 48]. Bu bahs tasavvuf tarixini bir tomonlama talqin qilish xavfini eslatadi. Mualliflar Safaviylar hokimiyatining kuchayishi Markaziy Osiyo va Kichik Osiyo o‘rtasidagi ma’naviy almashinuvga jiddiy to‘sqinlik qilganini ham yozadi [2; 47]. Bu siyosiy o‘zgarishlar tasavvuf aloqalariga bevosita ta’sir qilganini ko‘rsatadi. Shu bois tariqatlarning o‘zaro munosabatini raqobat yoki uzluksizlik sifatida ko‘rish masalasi hali ochiq qolmoqda, va keyingi tadqiqotlar bu masalada yangi arxiv va qo‘lyozma materiallariga tayanishi zarur.

Muhokama

Ikki qatlamning kesishgan nuqtasi moslashuv strategiyasida ko‘rinadi. Hermenevtik darajada so‘fiy mufassirlar mistik g‘oyalarni an’anaviy ilohiyot tushunchalari bilan uyg‘unlashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan, ya’ni Allohni yurak bilan “ko‘rish” haqidagi gap mu’tazila, ash’ariya va hatto an’anachi ilohiyotchilar talab qilgan Alloh haqidagi to‘g‘ri talqinni buzmagan [1; 304]. Institutsional darajada esa Naqshbandiya hokimiyat bilan aloqani inkor etmasdan, aksincha, unga kirib borish yo‘lini tanlagan [2; 44]. Ikki holatda ham umumiy mantiq bir xil: tizim tashqi bosim va qarshilikni chetlab o‘tish o‘rniga, ular bilan kelishish yo‘lini topgan. Bu mantiq so‘fiylikning tarixiy barqarorligini tushuntirishi mumkin. Naqshbandiya bilan yassaviylik o‘rtasidagi bog‘liqlik ham shu mantiqqa mos, yangi tariqat eski an’anaga tayanib, uni davr talabiga moslagan bo‘lishi mumkin [2; 43]. Uzluksizlik va yangilanishning birga kelishi moslashuvning yana bir shakli hisoblanadi. Bu bosqichda tasavvufning ilmiy va ijtimoiy tomonlari o‘zaro mos tushishi ko‘rinadi. Shu sababli moslashuv tasavvufning muhim xususiyati sifatida ko‘rilishi mumkin. Ayni paytda Holtsman tasavvufiy tafsirni chetdagi hodisa emas, asosiy oqim ilmiy an’anasining bir qismi deb ko‘rsatadi [1; 298]. Bu nuqtai nazar Markaziy Osiyo tariqatlarini ham ilmiy an’ana bilan bog‘liq ijtimoiy institut sifatida ko‘rishga imkon beradi. Biz bu bog‘lanishni ish gipotezasi sifatida taklif qilamiz: botiniy talqin qilish huquqiga ega bo‘lgan shayx ilmiy obro‘ga ega bo‘lgani uchun ijtimoiy ta’sirga ham ega bo‘lgan; ijtimoiy ta’sir esa o‘z navbatida uning talqinlariga tinglovchi va shogird tarmog‘ini ta’minlagan. Shunda tafsir va tariqat bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi ikki tomon bo‘lib chiqadi. Albatta, bu gipoteza ko‘rib chiqilgan manbalar doirasida umumiy tarzda ko‘rsatilgan, uni aniq shayxlar va matnlar bo‘yicha tekshirish alohida ishni talab qiladi. Tekshirishda shayxning ilmiy tayyorgarligi, shogirdlar soni, homiylar bilan aloqasi va matnlarining tarqalishi kabi ko‘rsatkichlarni taqqoslash mumkin. Shu tariqa nazariy tasavvur aniq tarixiy dalillar bilan sinaladi.

Xulosalarning cheklovlarini ochiq aytish kerak. Birinchidan, tariqat tarixiga oid manbalarning katta qismi hagiografik janrga mansub, ular ruhiy obro‘ni tarixiy tafsilotdan ustun qo‘yishga moyil [2; 43]. Shu sababli tarqalish mexanizmlari haqidagi gaplarni tanqidiy o‘qish zarur. Ikkinchidan, tasavvufiy tafsir masalasidagi umumlashmalar asosan Nishapur va Fors tilli hududlarda yashagan mualliflarning beshta XI asr asariga tayangan, ularning ichida Maybudiyning Fors tilida yozilgan tafsiri ilk fors tilli tafsir sanaladi [1; 299]. Bu material Markaziy Osiyo an’anasini to‘liq qamrab olmaydi, shuning uchun xulosalarni mintaqaga bevosita ko‘chirish xatoga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning o‘zida ham hududlar o‘rtasida tasavvuf tajribasi bir xil bo‘lmagan, shu sababli bitta shahar yoki tariqat misolidan umumiy xulosa chiqar-

ish xavfli. Uchinchidan, Koppens tadqiqoti haqidagi ma’lumotlar Holtsmanning taqrizi orqali olindi, bu esa ikkinchi darajali bayon ekanini bildiradi; taqrizchi monografiya tuzilishi takroriy ekanini va dissertatsiyadan chiqqan asar sifatida chuqurroq tahrirga muhtoj bo‘lganini ham qayd etgan [1; 304]. Demak, asl monografiyaning dalillarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta ishlatish xato bo‘lardi. To‘rtinchidan, tarixnomadagi bahslar, masalan, yassaviylik va naqshbandiylik o‘rtasidagi munosabat borasidagi ziddiyatli baholar, hali yakuniy javob bermaydi [2; 48]. Bu qarama-qarshiliklar tadqiqotchidan ehtiyotkor bo‘lishni talab qiladi. Nihoyat, ushbu maqola tanlangan manbalar doirasi bilan cheklangan: Tustariyga oid va o‘zbek tilidagi ishoriy tafsirga oid ishlar faqat asosiy xulosalari darajasida ishlatildi. Shu sababli ular haqidagi mulohazalar oldindan tajriba sifatida baholanishi, to‘liq matnlar bilan qayta tekshirilishi lozim. Bu cheklovlar tasavvuf tarixi bo‘yicha ehtiyotkor, dalilga asoslangan xulosalar zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ayrim manbalarning janri va davri o‘rtasidagi masofa ularning dalil sifatidagi kuchiga ta’sir qiladi. Bu cheklovlar xulosalarni yumshoq, farazga yaqin shaklda ifodalashni talab qildi. Kelgusi tadqiqotlar ularni bartaraf etishi mumkin.

Xulosa

So‘fiylik ikki o‘zaro bog‘liq qatlamdan iborat murakkab hodisa sifatida ko‘rinadi: Qur’onni botiniy talqin qilish an’anasi va tariqatlarning ijtimoiy tarmog‘i. Tasavvufiy tafsirda botiniy va an’anaviy talqin bir-biriga zid emas, birga uchraydi, tasavvuf mufassirlari esa faqat mistik tajribaga emas, hadis, fiqh va til ilmlariga ham tayanganlar [1; 297]. Bu so‘fiylikni islom ilmiy an’anasidan tashqarida emas, uning ichida ko‘rish kerakligini bildiradi. Ishoriy tafsir erkin talqin emas, muayyan shartlarga bog‘langan usul ekani ham shundan kelib chiqadi. Tustariyning to‘rt qatlamli ma’no nazariyasi va ishoriy tafsirga qo‘yiladigan shartlar bu an’ananing tartibli tizim ekanini ko‘rsatadi [3; 49]. Tariqatlarning Markaziy Osiyodagi tarqalishi esa Buyuk ipak yo‘lining o‘zi bilan emas, ustozlar harakati, xonaqoh tarmoqlari, matnlar aylanishi va homiylik munosabatlari bilan izohlanadi [2; 49]. Bu farqlash tarixiy tahlil uchun samarali usul bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan u tasavvuf merosini o‘rganuvchi tadqiqotchilarga matn tahlili bilan tarixiy-ijtimoiy tahlilni birga olib borishni tavsiya qiladi. Ikki qatlamni birlashtiruvchi ish gipotezasi shuni bildiradiki, ilmiy obro‘ ijtimoiy ta’sirni, ijtimoiy ta’sir esa ilmiy talqinlarning tarqalishini kuchaytirgan. Bu gipoteza aniq shayxlar va matnlar misolida tekshirilishi kerak. Ushbu maqolaning cheklovlari manbalar doirasining torligi va ayrim ishlar faqat annotatsiya darajasida ko‘rilganidadir; shu sababli ma’naviy va ijtimoiy qatlamlarning bog‘liqligi haqidagi xulosa hozircha farazdir. Shunday qilib, ikki qatlamning bog‘liqligi so‘fiylikni chuqurroq tushunishning kalitlaridan biri bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalishdagi ishlar hali boshlang‘ich bosqichda. Kelgusida O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa Markaziy Osiyo tadqiqotlarining to‘liq matnlariga, qo‘lyozma manbalarga va Yevropa hamda MDH mualliflarining so‘nggi ishlariga tayangan holda gipotezani chuqurlashtirish, shuningdek, zamonaviy tiklanish jarayonlarini alohida o‘rganish maqsadga muvofiq. Shunda so‘fiylikni ham tarixiy, ham hozirgi ijtimoiy hodisa sifatida to‘liqroq tushunish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Holtzman L. Seyeing God in Sufi Qur’an Commentaries: Crossings betweyen This World and the Otherworld by Pieter Coppens (kitob taqrizi) // Ilahiyat Studies. – 2021. – Vol. 12, No. 2. – P. 297–306. – DOI: 10.12730/13091719.2021.122.229

2. Akhmetzhanov D., Gabitov T., Alimzhanova A., Zharilkassyn Z. The Spread of the Naqshbandi Tariqa from Central Asia to India and Asia Minor: Trade Routes, Political Conditions, and Religious Networks // International Journal of Body, Mind and Culture. – 2026. – Vol. 13, No. 4. – P. 41–51. – DOI: 10.61838/ijbmc.v13i4.1417

3. Fikri A.A., Rahman Y. Pandangan Sahl al-Tustarī terhadap Al-Qur’an dalam Tafsīr Al-Qur’ān al-ʿAẓīm // Refleksi. – 2023. – Vol. 22, No. 1. – DOI: 10.15408/ref.v22i1.25233

4. Habibullayeva H.F., Agzamova M.M. Tasavvufiy-ishoriy tafsirlar va ularga qo‘yiladigan shartlar // Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Vol. 3, No. 1. – B. 104–108. – DOI: 10.5281/zenodo.7575620